

MAKTAB O'QUVCHILARINI KASBGA YO'NALTIRISH , MUAMMO VA YECHIMLAR

*Buxoro viloyat G'ijduvon tuman
14- umumiy o'rta ta'lim maktabi
amaliyotchi psixiologi
Shamsiyeva Nazokat Amonovna*

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash, ularni kasbga yo'naltirish borasida olib borilayotgan ishlar, erishilgan natijalar, mavjud muammolar va amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar yoritilgan. O'rganish va tahlil natijalari asosida O'zbekiston uchun mos bo'lgan yangi elektron tizim — "Individual tashxislash tizimi"ni yaratish taklif etilgan. Tizim orqali o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash, ularni kasbga yo'naltirish bo'yicha maktabimizda olib borilgan ishlardan namuna ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: umumiy o'rta ta'lim maktabi; kasb-hunarga yo'naltirish; platforma; tashxislash; kasb tanlash ,kasblar yo'nalishi

KIRISH

Kasbga yo'naltirish maqsadi — shaxsning ma'lum bir kasbiy faoliyat yo'nalishiga moyilligini aniqlashdir. Ushbu amaliyot har bir bola iste'dodli va ma'lum bir sohada o'z iste'dodini tatbiq eta oladi degan fikrga asoslanadi. Kasbga yo'naltirishning turli xil usullari mavjud — kelajakdagi kasbni tanlashda duch keladigan o'spirin bilan, uning qiziqishlari va sevimli mashg'ulotlarini muhokama qiladigan mutaxassislar bilan suhbatlar, shuningdek, standartlashtirilgan usullar mavjud, ularning natijalari kuchli va zaif tomonlarini tushunishga imkon beradi. Ulardan biri testni to'ldirishni o'z ichiga olgan «Harrisonn assessment» usuli bo'lib, uning natijalari talabaning rivojlangan fazilatlarini, shuningdek o'sish zonalarini ochib beradi. Ushbu amaliyot shuningdek, farzandingizga ushbu texnikaning natijalarini tushunishda yordam beradigan va rivojlanish rejasini tuzishda yordam beradigan psixolog konsultant bilan suhbatni o'z ichiga oladi

Albatta, ba'zi ota-onalar farzandlariga qaysi universitetga o'qishga kirishni, qaysi mutaxassislikda ta'lim olishni o'zi hal qilishadi, lekin ota-onaning bunday qarori har doim ham amalga oshmasligi mumkin, chunki kelajak kasbi bo'yicha hali aniq bir qarorga kelmagan bola bu mutaxassislikka umuman qiziqmasligini tushunib, o'qishni davom ettirishni istamasligi mumkin. Kasbga yo'naltirish usulidan foydalanish esa bunday vaziyat duchor bo'lmaslikga hamda oilaviy byudjetni tejashga va o'qitishga sarflanadigan vaqtni tejashga yordam beradi.

Bolaning shaxsiy fazilatlari va qobiliyatlariga asoslangan «Harrison assessment» kasbga yo'naltirish usuli sizning farzandingiz uchun eng maqbul kasblar ro'yxatini taklif etadi.

Kasb tanlash – har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri. Kasb – nafaqat daromad topish manbayi, balki umrning asosiy qismi sarflanadigan faoliyat hamdir.

Psixologlar bunday mas'uliyatli qaror qabul qilishda faqatgina atrofdagilarning tavsiyasiga tayanish emas, tahlilning boshqa muqobil variantlarini ham qo'llashni taklif qilishadi.

O'zingizda qaysi kasbga moyillik va qiziqish yuqori ekanini psixologik testlar orqali birlamchi bosqichda aniqlab olishingiz mumkin. Faqatgina bunda onlayn platformalarda duch kelgan testga emas, soha mutaxassislari ishlab chiqqan professional testlarga tayanish kerak. Shuni esda tutish kerakki, test natijalariga «hukm» deb qarash kerak emas. Ular faqatgina moyillik yo'nalishini belgilab beradi.

Maktabni bitirish arafasida o'spirin ko'pincha kasblar haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'ladi. Ular tanlagan kasblarining faqat ijobiy yoki aksincha salbiy jihatlarini ko'rishadi. Bunda ota-onalar farzandlariga ko'p narsalarni aniqlashtirishda yordam berishlari kerak.

9-sinfdan boshlab asta-sekin o'zingiz tanlagan yo'nalish bilan tanishish maqsadida institut va universitetlardagi «Ochiq eshiklar» kunlarida ishtirok etish maqsadga muvofiq.



Sinf rahbarining kasb hunarga yoʻnaltirishdagi oʻmi, oʻquv muassasasi rahbarining kasb hunarga yoʻnaltirishni tashkil etishi, oʻquv ishlari boʻyicha rahbar oʻrinbosarlarining vazifasini bajarishi oʻquvchilarni kasb –hinarga toʻgʻri yoʻnaltirishning asosiy omili hisoblanadi ..

Yoshlarni kasb hunarga yoʻnaltirishning nazariy shart-sharoitlari: fanning mazmuni, maqsadi va vazifalari. Kasb hunarga yoʻnaltirish asoslari togʻrisidagi taʼlimot: fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot; kasbni toʻgʻri tanlashning ahamiyati; umummehnat va maxsus malakalami, kasbga boʻlgan qiziqishini shakllantirish. Mehnat taʼlimi oʻqituvchisiga qoʻyiladigan talablar: oʻqituvchining kasb hunarga yoʻnaltirishdagi faoliyati va boshqaruvchanligi; mehnat oʻqituvchisiga qoʻyiladigan

talablar; o'qituvchining psixologik-pedagogik, umumkasbiy va tayyorgarligi. Kasbga yo'naltirish bosqichlarining mazmuni: kuzatish; diagnostik suhbatlar; Kasb hunarga yo'naltirish ishining maktab tizimi. O'qituvchining shaxsi, fan o'qituvchilarf, sinf rahbari; o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari. Ta'lim muassasalarida kasb hunarga yo'naltirish metodikasi. Kasb hunarga yo'naltirish komissiyalarini tashkil qilish; o'qituvchilar bilan metodik ishlarni tashkil qilish; o'quvchilar bilan ishlash; otalar bilan ishlash. Kasb hunarga yo'naltirishning tarbiyaviy ahamiyati. Kasblar xarakteristikasi - professiogramma. Kasb hunarga yo'naltirish ishlariga qo'yiladigan talablar. Maktabda mehnat ta'limi darslarida kasb hunarga yo'naltirish, boshqa soha mutaxassisliklar bilan tanishtirish, o'quv muassasasi atrofidagi korxonalar bilan tanishtirish. Ta'lim muassasalaridan tashqari kasb hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil qilish. Ekskursiyalarni tashkil qilish, kasb hunarga yo'naltirishda ommaviy axborotlar vositalarining ahamiyati. Kasb hunarga yo'naltirish ishlarining ijtimoiy asoslari. Kasb hunarga yo'naltirish ishlarining psixologik asoslari. Kasb hunarga yo'naltirish ishlarining fiziologik asoslari. Kasb hunarga yo'naltirish ishiga rahbarliklarga ham bog'liq albatta Texnologiya o'qituvchilarni maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish ishiga tayyorlash tizimi.



Xulosa qilib shuni aytish mumkin, tadqiqot natijasida platformani yaratish orqali maktab o'quvchilarini vaqtini samarali o'tkazish, o'quvchilarga qo'shimcha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga ko'maklashish, bilimi va salohiyatidan kelib chiqqan holda kasbga yo'naltirish, umumta'lim maktab o'quvchilari orasida jinoyat va bezorlikni bartaraf etish hamda maktab bitiruvchilarini zamonaviy kasblarga yo'naltirishga erishiladi. Jumladan: — bitiruvchilar mazkur platforma yordamida barcha soha kasblari bo'yicha to'liq ma'lumotga ega bo'ladilar; — o'quvchilarning dunyoqarashi, shuningdek, kasbga bo'lgan bilim va ko'nikmalari ortadi, ularning kasb tanlashdagi salohiyatlari oshadi; — o'quvchilarni maxsus testlar yordamida ularning qiziqish va qobiliyatlari, ruhiy va oiladagi holatini aniqlashga erishiladi; —

zamonaviy kasblar yo'nalishida o'quv kurslar bazasi shakllantiriladi; — o'quvchilar to'g'risida ma'lumotlarni sinf kesimida monitoringi amalga oshiriladi; — o'quvchining barcha fanlar bo'yicha natijalarini aks ettirish maqsadida umumta'lim maktablari o'quvchilari bilimini baholash (kundalik.com) hamda maktablarni boshqarishning (erp.maktab.uz) elektron tizimlari bilan integratsiya qilish ta'minlandi. Tadqiqotning muhim samaradorligi bu mamlakatdagi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining kasbiy qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash bilan bog'liq tadbirlarni yagona platformada birlashtirib, natijalarni monitoring qilish va ularga asosan ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun qarorlar qabul qilishda ko'maklashishdir. Tadqiqotning ijtimoiy ko'rsatkichi o'quvchi-yoshlarni qiziqishlariga ko'ra yo'naltirib, erta moliyaviy mustaqillikka erishishlari orqali ularning o'zlariga bo'lgan ishonchlari, mavqei va tajribasini o'sishidir. Portalda turli forum va musobaqalar o'tkazish orqali o'quvchilar orasida sog'lom raqobatni rivojlantirish va motivatsiyalash. Bundan tashqari, jamiyatimizdagi jinoyatchilar va axloqsiz shaxslarni kamaytirish maqsadida yoshlarning bandligini oshirishga erishiladi. Eng asosiysi, bitiruvchilarni kelajak kasbini aniqlashda yordam berish orqali mamlakatdagi ishsizlik va kambag'allik ko'rsatkichlarini kamaytirish. Yoshlarimizning yashab turgan hududidan qat'i nazar masofadan turib ishlab, yaxshi daromad topishlari uchun imkon yaratiladi. Natijada mehnat bozorida raqobat yanada kuchayib, kadrlar rivojlanishi orqali mamlakat rivojiga hissa qo'shiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Uzbekiston Respublikasining "Ta'lim tugrisida"gi qonuni, URQ637-son, 2020 (Law of the Republic of Uzbekistan "On Education", URQ-637, 2020), available at: <https://lex.uz/docs/5013007>
2. Usmonov A., Uquvchilarni kasb-hunarga maqsadli yunaltirish istiqbolda mehnat bozoridagi muammolarni bartaraf etishning muhim omili (Targeted privatization of workers to the profession is an important factor in overcoming problems in the labor market in the future), available at: <https://hp.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/download/4299/2918>
3. Saidov B., Radzhiev A. va boshqalar, Kasbga yunaltirish: muammo va echimlar (Professional rejuvenation: problems and solutions), Tashkent, 2023.